

MUSTAQILLIK YILLARIDA ANDIJON VILOYATIDA YENGIL SANOATNING RIVOJLANISH TARIXI

Yulchiyev Hamdambek Abdurahmonovich

Qo‘qon Universiteti ta’lim fakultetining
ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Mustaqilikning dastlabki yillarida respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida Andijon viloyatida yengil sanoat korxonalarining tashkil etilishini tarixi qonuniy hujjatlar asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: eksport, sanoat, investitsiya, modernizatsiya, kompaniya, shartnoma, to‘qimachilik, korxona, poyabzal.

Andijon viloyati Respublikamizning iqtisodiy va madaniy rivojlangan viloyataridan biri. Viloyat barcha jabhalarja – hunarmandchilik, yengil sanoat, mashinasozlik, bog‘dorchilik, paxtachilik, sport va musiqachilikda yetakchi. Andijon viloyati har bir yo‘nalishda o‘ziga xos yangicha uslubga ega – paxta yetishtirishda Andijon usuli (plyonka ostiga chigit ekish), Namunali uylarning qurilishida Andijon modeli, Andijon boks maktabi va boshqalar. To‘qimachilik sanotida ham Andijon viloyati yangi rivojlanish nuqtasiga bo‘lib, innovatsion va tizimli loyihalarni amalga oshirish natijasida O‘rta Osiyo to‘qimachilik markaziga aylanmoqda. 1993-yili Marhamat tumanidagi Z.M. Bobur nomli jamoa xo‘jaligi hududida O‘zbekiston – Rossiya – Slovakiya qo‘shma korxonasi – “Uvaysiy” ishlab chiqarish firmasi tashkil etildi. 1993 yil 14-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligida 13-02-51605 sonli raqam bilan qayd etilgan. Bobur nomli jamoa xo‘jaligi boshqaruv hay‘atining 1993 yil 5- apreldagi 5-4 sonli qarori hamda 1993 yil 29- iyulda Rossiya – Slovakiya qo‘shma korxonalar assotsatsiyasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan “Uvaysiy” ishlab chiqarish firmasiga yangi dastgohlar tizimi va zarur matolarni olish uchun 1992 yil hisobidagi paxta tolasidan Slovakiyaning Bratislava shaxriga 150 tonna paxta tolasi yuborilgan

Andijon poyabzal ishlab chiqarish xissadorlik jamiyati jamoasi O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasini 26.01.96 yilgi 47-F qarorlari ijrosini ta‘minlash

uchun besh bo‘limdan iborat umumlashtirilgan chora tadbirlar rejasini tuzgan[1]. 1995-yil quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yakunlandi: Poyabzal 502 ming juft 100 foiz, tovar mahsulot ishlab chiqarishi 89070 ming so‘m 100,5 foiz. Xissadorlik jamiyati tarkibiga Madaniyat poyabzal fabrikasi, Polvontosh poyabzal fabrikasi, bosh korxona – Andijon poyabzal fabrikalari kiradi. Bozor talablarini o‘rganish maqsadida Marketing bo‘limi tashkil qilindi. Shu bilan birga mutaxassislariga bo‘lgan e‘tibor ko‘chaytirildi. Ular atestatsiyadan o‘tkazilib atestatsion komissiya belgilagan toifa asosida oylik belgilandi. 1996-yilda respublikamizning barcha viloyatlarida birlashmaning 16 maxsus savdo do‘koni faoliyat ko‘rsatgan. Maxsus buyurtmalar bilan ishlash bo‘yicha birlashmada katta ishlar qilindi. 1996-yilgi reja topshirig‘ini 30 foizini O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi, milliy xafsizlik xizmati, ichki ishlar vazirligini buyurtmalari tashkil etadi. Bu Vazirliklarga 1995-yilda 16215 ming so‘mlik mahsulot yetkazib berildi. 1996-yilda 44400 ming so‘mlik mahsulot yetkazib berish uchun sharnoma tuzilgan. Yanvar va fevral oylarida 2 mln so‘mlik mahsulot yetkazib berilgan [2].

Andijon viloyatining Ulug‘nor tumanida 600 ming so‘mlik trikataj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi O‘zbekiston – Buyuk Britaniya “ Ul kard ” qo‘shma korxonasi tashkil etildi va 2001 yil davomida korxona 31,4 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi.[2] 2017-yilda Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa tumanida " KHANTEX GROUP " MCHJ tashkil etilgan. Bu yerdagi Ishlab chiqarish jarayonida Shveysariya, Germaniya, Italiya, Avstriya, Chexiya, Yaponiya, Turkiya, Xitoyning yetakchi kompaniyalarining zamonaviy yuqori samarali uskunalari qo‘llaniladi.

Yigiruv ishlab chiqarishi dunyoga mashhur avtomatlashtirilgan (2019-yil ishlab chiqarilgan) uskunalar bilan jihozlangan. Jumladan, Riyeter (Shveysariya) - yigiruv, Murata (Yaponiya) - orqaga burish, Uster (Shveysariya) - laboratoriya tahlili va nazorati, Savio (Italiya) - burama va "Temsan" (Turkiya) - shamollatish va havoni tozalash tizimi. Yetishtirilayotgan paxta tolasining o‘zi yillik qayta ishlash quvvati 10,3 ming tonnani tashkil qiladi.[3]

Bugungi kunda viloyatda 655 ta to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoati korxonalari faoliyati yuritib kelmoqda. Bu ko‘rsatgich bilan Andijon respublikada 3 o‘rinni egallamoqda. Viloyatda azaldan pahtachilik keng rivojlangani natijasida viloyatda yirik yigiruv korxonalari faoliyat olib boradi. Viloyatda yiliga **138,1** ming tonna ip kalava (161,9 ming tonna paxta tolasi), **47,0** mln.kv.m.ip gazlama, **58,1** ming tn. trikotaj mato va momiq mato, **521,8** mln.dona tayyor tikuv-trikotaj, **23,4** mln.juft paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega hamda mavjud ish o‘rinlari **60** ming tani tashkil etadi.

Ulardan qariyb 160 ta korxona maxsulotlarini eksportga yo‘naltiradi. O‘tgan yil natijalariga ko‘ra viloyat 327,9 mln.dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini dunyoning 19 ta davlatiga eksport qilishga erishgan.

Andijon viloyatining to‘qimachilik investitsiya salohiyati ham yuqori baholanadi. Bunga viloyatda xomashyo bazasi, rivojlangan logistik kanallar, malakala va izlanuvchan kadrlar, tabiiy resurslar va infratuzilmaning mavjudli va keng rivojlanganidir. So‘ngi 4-5 yil mobaynida viloyatda 20 ta yirik to‘qimachilik loyixalari amalga oshirishga erishildi

2020-2021-yillarda qiymati **150,1** mln. dollar bo‘lgan jami **21** ta yirik loyihalar ishga tushirildi, jumladan: Andijon shahrida “Bobur XBK” MCHJ (7,8 mln. dona tikuv-trikotaj mahsulotlari), Xo‘jaobod tumanida “Mustaxkam tekstil” (7,2 mln. dona tikuv-trikotaj mahsulotlari), Qo‘rg‘ontepa tumanida “Khantex Group” MCHJ (5,0 mln.kv.m. ip gazlama, 2,4 ming tonna bo‘yalgan trikotaj mato, 10,0 mln. dona tikuv-trikotaj mahsulotlari), Andijon shahrida “Dinar Group” MCHJ (9,0 ming tn. bo‘yalgan trikotaj mato, 2,0 mln. dona tikuv mahsulotlari) va boshqa korxonalar. Natijada ushbu loyihalarda **6 200** dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Andijon viloyati tadbirkorlari mavjud imkoniyatlar keng foydalanish orqali to‘qimachilik sanoatida o‘zgacha yondoshuv orqali to‘qimachilik sanoatini jadal rivojlantirishga erishishdi. Paxta tolasini yetishtirishdan to tayer maxsulotgacha bo‘lgan jarayonni – mukammal ishlab chiqarish zanjirini barpo etishga erishildi.

Olib borilgan islohotlar va tadbikorlikka keng yo‘l ochib berilganligi natijasida viloyatda O‘zbekiston va O‘rta Osiyo xududida yagona bo‘lgan to‘qimachilik korxonalari ishga to‘shirildi.

“BOBUR HBK” MCHJ tomonidan Andjon shahrida umumiy qiymati 33,0 mln.dollarni tashkil etuvchi “DiROMM Jeans” korxonasi ishga tushirildi. Korxonaning yillik ishlab chiqarish kuvvati 9 mln. dona. djinsi maxsulotlarini tashkil etadi, eksport saloxiyati 50,0 mln dollardan ziyod. Loyiha ishga tushishi bilan 2700 yangi ish urinlari yaratildi.

Texnologik jihatdan mukammal hisoblangan ushbu korxona innovatsiyalarni joriy qilgan holda djinsi mahsulotlarini ishlab chiqarishda eng yirik korxonaga aylandi.

Korxonada har bir uskuna va jihozlashga alohida estetik ahamiyat berilgan. Innovatsiyalar bilan uyg‘unlashgan ishlab chiqarish bosqichi tez fursatda sifatli va o‘zgacha dizayndagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “DINAR GROUP” kompaniyasi tomonidan Andijon shahrida amalga oshirilayotgan bo‘yok kompleksi loyihasi ham yirik loyihalardan biri. Korxonaning 2-boskichdagi loyixa qiymati 10,0 mln.dollarni bo‘lib, shundan korxonaning o‘z mablag‘lari 7.7 million dollarni tashkil etadi. Korxonada 1000 yaqin yangi ish urinlari yaratilgan. Yillik eksport saloxiyati 20,0 mln dollarni tashkil etadi[4].

Loyiha 2021-yil mart oyida foydalanishga topshirilgan bo‘lib Turkiya, Xitoy, Yaponiya va Yevropa davlatlarining mashxur to‘qimachilik uskunlarini ishlab chiqaruvchilarining to‘qimachilik dastgolari o‘rnatilgan. Bu yiliga 5,0 ming tonna trikotaj mato, 3,5 million dona tayyor trikotaj maxsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradi. Xo‘jaobod tumanidagi “Xo‘jaobod Fayz- M” paxta to‘qimachilik korxonasi 16 yillik faoliyati davomida kichik sexdan Andijondagi eng yirik ishlab chiqarish sub‘yektlaridan biriga aylandi. Bu yerda chiqarilayotgan mahsulotlar “Fayz-M” yorligi bilan ichki va tashqi bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Shahrixon tumanidagi “saxovat tex” MChJ ning “Ahsan” savdo belgisi ham xorij davlatlarida talabgir brendga aylandi. Bugungi kunda ushbu korxonadan “Ahsan” yorligi tushirilgan tayyor to‘qimachilik mahsulotlari Rossiya, Xitoy, Qirg‘iziston, Turkiya, Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. Ushbu korxona 2020-yilda chet ellik buyurtmachilarga 5 million 600 ming AQSH dollarlik mahsulot yetkazib bergan [5].

M.A. Rahmatov B.Z. Zaripov. Yangi O‘zbekiston uchinchi Renessans ostonasida nomli asarida “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig‘iga ega to‘qimachilik, tikuv- trikotaj mahsulotlari bugun dunyoning barcha qit‘asiga, 70 dan ortiq xorijiy davlatlarga yetkazib berilayotganligini takidlab o‘tadi. Bugungi kunda Andijon viloyatida 20 yirik yengil sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Yetishtirilgan paxta tolasining 82 foizi viloyatda qayta ishlanmoqda.

Xo‘jaobod tumanidagi «Nil Granit» kompaniyasi «Samo» brendi ostida yiliga 5 million dona tayyor kiyim ishlab chiqarmoqda. 480 kishi mehnat qilayotgan korxona mahsulotlari Rossiya, Ukraina, Moldova, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda Bugungi kunda vodiy viloyatlarining shahar tumanlarida tashkil etilayotgan yengil sanoat korxonalaridagi yangi ish joylariga “Temir daftar“, “Yoshlar daftari“, “Ayollar daftari“ga kiritilganlar ham jalb etilishi natijasida xotin-qizlarimiz yangi ish o‘rinlariga ega bo‘lmoqda. Xududlarda to‘qimachilik, tikuvchilik korxonalarining jadal o‘sishi natijasida aholini bandligini ta‘minlash va hayot darajasini yuksaltirishda asosiy kuch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Fond 734. R 1. Y.J 149. 45 bet
2. Fond 734. R 1. Y.J 556. 13 bet
3. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси . 2003 й. № 3. 3 бет
4. Андижон вилояти ҳокимияти жорий архиви материаллари.
5. M.A. Rahmatov, B.Z. Zaripov. Yangi O‘zbekiston uchunchi renessans ostonasida. T: “Zamin nashr” 2021 y 212 b.